

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAODATOV ALIMARDON ABDURAXMONOVICH

**YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UO‘K: 101.1:316:502:008-053.81(575.1)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Saodatov Alimardon Abduraxmonovich

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish omillari3

Саодатов Алимардон Абдурахмонович

Факторы формирования и развития экологической культуры у молодежи23

Saodatov Alimardon Abdurakhmonovich

Factors of formation and development of ecological culture in youth.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ.

List of works published.....52

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAODATOV ALIMARDON ABDURAXMONOVICH

**YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fal997 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudaynazarov Samad Xudayberdiyevich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Salomova Hakima Yusupovna
falsafa fanlari doktori, professor

Omonov Bahodir Nurillayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “12” iyun soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (914 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “26” May kuni tarqatildi.

(2026-yil “26” May dagi 18 raqamli reyestr bayonnomasi.)



B.B. Namozov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda texnogen taraqqiyot va iste'mol madaniyatining keskin kuchayishi sharoitida ekologik muammolar - atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan meyoridan ortiq foydalanish, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va ekologik xavfsizlikka tahdidlarning kuchayishi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni yangicha talqin qilishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishni faqat ekologik bilimlar majmui sifatida emas, balki ekologik ong, ekologik qadriyat, ekologik mas'uliyat, ekologik xulq-atvor sifatida tadqiq etish zarurati ortib bormoqda. Shuning uchun yoshlarning ekologik tafakkurini shakllantirish, inson – tabiat – jamiyat munosabatlarida mas'uliyat, meyor, uyg'unlik va barqarorlik tamoyillarini qaror toptirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va muammolarga yangicha yondashuvlarni taklif etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida ekologik madaniyat, barqaror taraqqiyot, yashil iqtisodiyot, ekologik axloq, ekologik qadriyatlar va ekologik mas'uliyat masalalari, odamlarning tabiatga ongli, mas'uliyatli va maqbul munosabatini shakllantirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyat taraqqiyotida barqaror rivojlanish yoshlar ekologik savodxonligini oshirish va global ekologik madaniyatni shakllantirishni talab etmoqda. Xususan, yoshlar ekologik madaniyatining tarkibiy-funksional xususiyatlari, milliy qadriyatlar va ekoturizmning tarbiyaviy imkoniyatlari, uzluksiz ta'lim tizimidagi ekologik madaniyatni shakllantirish mexanizmlari, fuqarolik jamiyati institutlarining funksional roli hamda xorijiy amaliyot va milliy tajribaning uyg'unlashuvi masalalarini yoshlar ma'naviy kamoloti, ijtimoiy mas'uliyati, ekologik faolligi va barqaror taraqqiyotga daxldor fuqarolik pozitsiyasi bilan bog'liq holda tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, tabiatni muhofaza qilish va yashil taraqqiyot tamoyillarini ijtimoiy hayotga singdirishga oid chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Atrof-muhitni bekamu ko'st saqlash, ekologik muvozanatni saqlash borasida ko'plab hujjatlar, qarorlar qabul qilishimiz, keng miqyosli loyihalar ishlab chiqishimiz, zarur choralar ko'rishimiz, ularni moliyalashtirish uchun mablag' yo'naltirishimiz mumkin. Ammo bu sohadagi barcha ishlarimiz samarasi ushbu jarayonlarda fuqarolarimizning faol ishtiroki, tevarak-atrofga mas'uliyat hissi, boshqacha aytganda, jamiyatdagi ekologik madaniyatga bog'liqdir. ...Bunda aholining ekologik bilim darajasi alohida ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda tabiatni tushunish, ekologik ta'lim-tarbiya, aholida va avvalo yoshlarimizda ezgulik, ko'ngilchanlik, rahmdillikka da'vat etuvchi ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirish – atrof-muhitni saqlash borasida qilinishi zarur bo'lgan muhim ishlardan biridir"¹. Shu nuqtai nazardan, yoshlar ekologik tafakkurini rivojlantirish, ularning tabiatga mas'uliyatli munosabatini mustahkamlash hamda ekologik madaniyatni qadriyatga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: "O'zbekiston", 2024. -Б.401.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 31-maydagi PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 3-oktyabrdagi PQ-3956-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-son “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Yoshlarni tabiatga ongli va mas‘uliyatli munosabat ruhida tarbiyalash, “tabiat bilan jamiyat, tabiat bilan inson, tabiat tarixi bilan jamiyat tarixi”, naqliy va aqliy, diniy va dunyoviylik birligida dialektik birlik, uyg‘unlik kasb etib sog‘lom ekologik muhit omonligini saqlagan va necha avlodlarni tabiatga oshnolik, dardkashlik ruhida tarbiyalagani haqiqatdir. Masalan, “Avesto”da suv, tuproq, olov, havo ya‘ni tabiat e‘zozlangan. Hozirgi davrda ekologik xavf-xatarlarni oldini olishning fundamental masalalari xorijiy tadqiqotchilar A.A.Keller, A.M.Karner, L.Xarris, R.Klim, A.Martont, L.Yu.Mayu, M.S.Meadiya, J.V.Florin va boshqalar tomonidan ekologiyaning tibbiyot, geografiya va boshqa sohalar bilan aloqadorligi masalalari o‘rganilgan².

² Keller A.A Mediko-ecological mapping // Geographia ameda, 1993. Vol. 23.-№2; Karner H., Harris L., Kling G.A new poxy measure for health status // Health Servises Research, 1969. 4; Harris M. Cultural Materialism: The Struggle for a Science of Culture.–New York: “Random House”, 1979; Linton R. The Study of Man.–New York: “Appleton-Century”, 1936; Merton R.K. Social Theory and Social Structure.–New York: “Free Press”, 1968; Mayo E. The Human Problems of an Industrial Civilization. –New York: “Macmillan”, 1933; Mead M. Coming of Age in Samoa.–New York: “William Morrow & Company”, 1928; Florin J.W., Gesler W. M. Medical geography. –N.Y.L.: “The Guilford Univ. Press”, 1998. –P.168.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.P.Kazaryan, M.I.Budko, A.G.Axatov, A.A.Keller, V.I.Kuvakin, Yu.G.Ojegov, A.A.Melkumova va G.I.Lyubkarskiy va E.V.Nikonorova, uning izdoshlari ekologik madaniyatni shakllantiruvchi asosiy unsurlar - e'tiqod, bilim, ko'nikma va malaka, xulq-atvor me'yorlari hamda hissiy qadriyatlarni ilmiy jihatdan o'rgangan³.

O'zbekistonda ekologiyaning falsafiy muammolari: tabiat borlig'i hamda uning xilma-xil tarkiblari, ekologik ziddiyatlar, ekologik-tabiiy me'yor, ekologik muvozanat muammolari bilan S.Mamashokirov, O'.Saidova, A.Ashirov, A.To'xtayev, O'.G'.Tilavov, S.Kistaubayev, Z.A.Abduazimova, S.Xudaynazarov, Z.Yazdonov kabi olimlar ilmiy tadqiqot olib borishgan. Hozirgi globallashuv davrida yoshlarni ekologik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy asoslariga doir muayyan ilmiy tayanch yo'riqlarni topishimizda S.Rahimov, B.Kalonov, R.Egamberdiyev va R.Eshchanov, B.Omonov va Sh.Otaboyev asarlari ilmiy qiymatga ega. Yoshlarda ekologik ma'naviy madaniyat va mas'uliyati bilan bog'liq ayrim masalalar Z.Abdullayev, B.Ziyomuhamedov, M.Ismoilov, H.Salomova, N.Safarova kabi olimlarning asarlarida pragmatik yondoshilgan⁴.

Umuman olganda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarning tahlili ko'rsatadiki, hozirgi davrgacha yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish omillari muammosi fragmentar tarzda o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda yoshlar ekologik madaniyatining tarkibiy-funksional xususiyatlari, milliy

³ Казарян В.П. У источников экологического мышления в России. –М.: “Вестник МГУ”, 1998. -№1; Будыко М.И. Глобальная экология. –М.: “Мысль”,1977. -С.328.; Ахатов А.Г. Экология и международное право / Ecology & International Law / -М.: “АСТ-ПРЕСС”, 1996. – С. 512.; Келлер А.А., Кувакин В.И. Медицинская экология. СПб, 1999; Кувакин В.И. Религия и личност.–М.: “Политиздат”, 1983; Ожегов Ю.Г., Никонорова Е.В. Экологический импульс. –М.: “Молодая гвардия”, 1990.; Мелкумова А.А. Экологическая культура и образование. –М.: “Наука”, 2004; Любкарский Г.И. Философские основы экологии. –М.: “Наука”, 1990; Никонорова Е.В. Экологическая культура и современное общество. –М.: “Российская государственная библиотека”, 2012;

⁴ Мамашокиров С. Усмонов Э. Барқарор таракқийтнинг экологик хавфсизлик масалалари. –Тошкент: “Фан”, 2009. – Б. 247.; Саидова У.Г. Экологик маданият тарихи ва унинг ривожланиш бошқичлари: фал. фан. ном. .. дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – Б.26., Аширов А.У. Ўзбекистон маҳаллаларида жамоатчилик экологик назоратини амалга оширишнинг ижтимоий - маданий омиллари (Ижтимоий фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2024. -Б. 54., Тўхтаев А., Ҳамидов А. Экология асослари ва табиати муҳофаза қилиш. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 2020. Tilavov O'.G'. Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014. – В. 148.; Kistaubayev S. Ekologiya va barqaror rivojlanish konsepsiyasi. - Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2015. – В.176., Abduazimova Z.A. Ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish. - Toshkent: “Fan”, 2016. – В.120., Худайназаров С. Шахс экологик маданиятини шакллантиришда бадий адабиётнинг роли. Фал. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2010. – Б.26., Яздонов З.Ш. Ўзбек халқ экологик маданияти анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш тенденциялари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Самарқанд: 2019. – Б.143.; Раҳимов С., Экологиянинг ижтимоий-сиёсий ва фалсафий асослари. -Т.: “Iqtisod-moliya”, 2006. -Б. 7., Калонов Б. Давлат экологик назоратининг ҳуқуқий муаммолари. -Т.: “Маънавият”, 2005. – Б.122., Egamberdiyeva Z. Ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. - Toshkent: “O'qituvchi”, 2012. – В.134., R.Eshchanov. Ekologiya asoslari. -Т.: “Zar qalam”, 2004. – В.234., Б.Омонов. Ўзбекистоннинг оролбўйи минтақасидаги экологик сиёсат. –Т.: “Фан”, 2014. – Б.184., Отабоев Ш. ва бошқ. Оила, маҳалла, экология (озодлик) ва саломатлик муаммолари. – Тошкент: “А.Навий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашр”, 2008. – Б. 100.; Abdullayev Z. Ekologiya va jamiyat rivojlanishi. - Toshkent: “Fan”, 2012. – В.140., Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma'naviyat. - Т.: “O'qituvchi”, 1997.- В. 95., Ismoilov M. Ekologik madaniyat va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2013. – В.128., Salomova H.Yu. Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015. –В.28-35., B.N. Omonov. Ekologiya va jamiyat taraqqiyoti. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. – В.140., Safarova N.O. Yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish muammolari. - Toshkent: “O'qituvchi”, 2013. – В.120., Xudaynazarov S.X. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni.–Т.: “Ilm va ta'lim”, 2019; Саломова Ҳ.Ю. Ижтимоий экология асослари. –Тошкент: “Фан ва технология”, 2004. –156 б.;

qadriyatlar va ekoturizmning tarbiyaviy imkoniyatlari, kompleks ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur dissertatsiyada ekologik madaniyatni yoshlar ma'naviy kamoloti, ijtimoiy mas'uliyati, ekologik faolligi va barqaror taraqqiyotga daxldor fuqarolik pozitsiyasi bilan bog'liq holda tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Barqaror demokratik huquqiy jamiyat qurishda axloqiy-ma'naviy tarbiya va falsafiy, huquqiy ongning dialektikasi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"ekologik madaniyat" tushunchasining ekologik ong, ekologik tafakkur, ekologik qadriyat, ekologik mas'uliyat va ekologik xulq-atvor bilan o'zaro aloqadorligini asoslash;

zamonaviy taraqqiyot sharoitida ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodologik asoslarini, funksional-metodologik yondashuvlarni tadqiq etish;

yoshlar ekologik madaniyatining tarkibiy-funksional xususiyatlari, uning shakllanish omillari va unga ta'sir ko'rsatuvchi determinantlarni aniqlash;

milliy qadriyatlar va ekoturizmning yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni asoslab berish;

uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini ochib berish;

fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi funksional rolini tahlil qilish;

yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar, xorijiy amaliyotni milliy tajriba bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish;

yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

yoshlarda ekologik madaniyatini takomillashtirish yo'nalishlari - adabiyot, san'at, kino, teatr, ommaviy axborot vositalari, ta'lim va ilmiy-ma'rifiy institutlarning ta'sirini kuchaytirishga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida yoshlarning ekologik ong va madaniyatini shakllantirish hamda ularni rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, tarkibiy-funksional xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi omillar va ularning samaradorligini oshirish qonuniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, sinergetik, statistik tahlil va sotsiologik so'rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning (ekologik ong – ekologik qadriyat – ekologik mas'uliyat – ekologik xulq-atvor – ekologik faoliyat tizimini tartibga soluvchi ijtimoiy-madaniy

mexanizm) tabiatga munosabatni meyorlashtirish, xatti-harakatni boshqarish, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish va yoshlarning ekologik mas'uliyatini shakllantirishdagi funksional ahamiyati asoslangan;

milliy va umumbashariy etnoekologik madaniyatning yoshlar ma'naviy hayotida zamonaviy ekologik madaniyatning tabiatga daxldorlik, resurslardan oqilona foydalanish, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik kabi mezonlarini shakllantirishi hamda uning tarbiyaviy (tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish, ekologik xulq-atvorni barqarorlashtirish), me'yoriy (isrofgarchilikning oldini olish, tabiatdan foydalanish chegaralarini belgilash), identifikatsion (ekologik merosga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish va ekologik qadriyatlarni asrash), safarbar etuvchi (ekologik tashabbuslarga jalb etish va faollikni kuchaytirish) imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantiruvchi omillar va uni rivojlantiruvchi vositalar (oila, mahalla, ta'lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ekoturizm, ekologik volontyorlik) yaxlit ijtimoiy tizim sifatida yoshlarning ekologik madaniyatini lokal hududdan kengroq ijtimoiy-ekologik makonga ta'sir ko'rsatuvchi fuqarolik mas'uliyati darajasiga ko'tarishi (umumjamiyat va umuminsoniy javobgarlik tuyg'usini shakllantiruvchi ijtimoiy mexanizm) dalillangan;

yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda ekologik ta'lim, raqamli ekologik ma'rifat, ekoturistik amaliyot, yoshlar ekologik volontyorligi, jamoatchilik nazorati, yashil tashabbuslar va ta'lim muassasalari hamda mahalla hamkorligini uyg'unlashtirish "tabiat – jamiyat – inson" tizimida tabiatning muvozanati, ekologik barqarorlik va kelajak avlodlar manfaatlari bilan muvofiqlashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekologik xavflarni kamaytirishda ma'naviy-axloqiy va intellektual mexanizmlarning ijtimoiy-tabiiy muhitda samarali ishlashi, ularning global, mintaqaviy va mahalliy xususiyatlari bilan uzviy bog'liqligi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli asoslab berilgan;

yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishning amaliy yo'nalishlari - ta'lim muassasalari, mahalla, yoshlar tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligida ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot, ekologik aksiya, volontyorlik va "yashil tashabbus" loyihalarini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

yoshlar ekologik madaniyatini baholashda tabiatga munosabati, resurslardan foydalanish madaniyati, ekologik tashabbuslarda ishtiroki, jamoaviy mas'uliyati va ekologik xulq-atvor indikatorlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, dissertatsiya doirasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalar natijalari bilan boyitilgani, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy

etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda keltirilgan xulosa va umumlashmalardan ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish omillarini, ushbu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi konstruktiv texnologiyalar, ekologik madaniyatning tarkibiy-funksional xususiyatlarini ochib berishda, uning yoshlar ma'naviy kamoloti, tabiatga mas'uliyatli munosabati va barqaror taraqqiyot g'oyalari bilan bog'liqligini oshib berishga qaratilgan tadqiqotlarda, shuningdek, milliy qadriyatlar, ekoturizm, uzluksiz ta'lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari, xorijiy amaliyot va milliy tajribaning o'zaro uyg'unligini nazariy jihatdan asoslashda nazariy-metodologik manba sifatida foydalanilish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy, tarbiyaviy, institutsional va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda, uzluksiz ta'lim tizimida ekologik tarbiya mazmunini takomillashtirish, yoshlarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarida ekologik loyihalar, "yashil kampus", "yosh ekologlar klubi", ekologik volontyorlik va ekoturistik tadbirlarni tashkil etishda, shuningdek, mahalla, yoshlar tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida yoshlarning ekologik faolligini oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ularning amaliy ishtirokini kuchaytirish, ekologik targ'ibot-tashviqot ishlarini zamonaviy raqamli vositalar orqali yo'lga qo'yishda hamda "Falsafa", "Ekologik madaniyat", "Barqaror taraqqiyot asoslari", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish omillarini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning (ekologik ong – ekologik qadriyat – ekologik mas'uliyat – ekologik xulq-atvor – ekologik faoliyat tizimini tartibga soluvchi ijtimoiy-madaniy mexanizm) tabiatga munosabatni meyorlashtirish, xatti-harakatni boshqarish, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish va yoshlarning ekologik mas'uliyatini shakllantirishdagi funksional ahamiyatiga doir amaliy taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Ekologik partiyasining "Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish, Orolbo'yi hududida ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash, mahalliyashtirishni ta'minlash, ekologik vaziyatni tiklash va sog'lomlashtirish, boshqa ekologik noqulay hududlarda ekologik muammolarni hal etish va aholi salomatligini saqlashga yo'naltirilgan innovatsion g'oya va texnologiyalarni, dastur va loyihalarni qo'llab-quvvatlash"da foydalanilgan (O'zbekiston Ekologik partiyasining 2024-yil 19-dekabrda 01/514-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda yoshlarning ekologik va estetik ongini shakllantirishda milliy qadriyatlarning ta'sir mexanizmlari hamda ularning ijtimoiy-madaniy omillari aniqlangan bo'lib, ushbu taklif etilayotgan konseptual modellardan dasturiy maqsad va vazifalarini samarali amalga oshishga xizmat qilgan;

milliy va umumbashariy etnoekologik madaniyatning yoshlar ma'naviy hayotida zamonaviy ekologik madaniyatning tabiatga daxldorlik, resurslardan oqilona foydalanish, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik kabi mezonlarini shakllantirishi hamda uning tarbiyaviy (tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish, ekologik xulq-atvorni barqarorlashtirish), me'yoriy (isrofgarchilikning oldini olish, tabiatdan foydalanish chegaralarini belgilash), identifikatsion (ekologik merosga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish va ekologik qadriyatlarni asrash), safarbar etuvchi (ekologik tashabbuslarga jalb etish va faollikni kuchaytirish) imkoniyatlariga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yilda ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 9 yo'nalishida belgilingan "Sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyat va tabiatni asrash masalalari" 41 bandi "Aholi, ayniqsa yosh avlodda atrof-muhit ozodaligi, shaxsiy gigiena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya ishlarni kuchaytirish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 20-dekabrda 10/224-son ma'lumotnomasi). Natijada, ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish omillarini ochib berishga hamda yoshlarda ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilgan;

yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantiruvchi omillar va uni rivojlantiruvchi vositalar (oila, mahalla, ta'lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ekoturizm, ekologik volontyorlik) yaxlit ijtimoiy tizim sifatida yoshlarning ekologik madaniyatini lokal hududdan kengroq ijtimoiy-ekologik makonga ta'sir ko'rsatuvchi fuqarolik mas'uliyati darajasiga ko'tarishi (umumjamiyat va umuminsoniy javobgarlik tuyg'usini shakllantiruvchi ijtimoiy mexanizm)ga doir tavsif va umumlashmalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-2025-yillardagi faoliyati, jumladan 2025-yil ikkinchi yarim yillik ish rejasi "VII. Yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish"ga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 23-dekabrda 2-15-21-6871-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarning o'z yashash hududiga daxldorlik hissini kuchaytirish, ekologik mas'uliyatni kundalik turmush madaniyatiga aylantirish va ijtimoiy faolligini oshirishga hamda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda ekologik ma'rifatni kuchaytirish, yoshlarni daraxt ekish, ko'klamzorlashtirish, tabiatni asrash va ekologik monitoring jarayonlariga jalb etishga xizmat qilgan;

yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda ekologik ta'lim, raqamli ekologik ma'rifat, ekoturistik amaliyot, yoshlar ekologik volontyorligi, jamoatchilik nazorati, yashil tashabbuslar va ta'lim muassasalari hamda mahalla hamkorligini uyg'unlashtirish "tabiat – jamiyat – inson" tizimida tabiatning muvozanati, ekologik barqarorlik va kelajak avlodlar manfaatlari bilan muvofiqlashtirishga oid ilmiy dalillangan taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170913120-son "Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari"

mavzúsidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 23-maydagi 04/11-6510-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekistonda farovon hayotning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma‘rifiy, ekologik asoslari barpo etishda, madaniy-ma‘rifiy, ma‘naviy sohani rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, yoshlar ekologik tafakkurini yuksaltirishni, uni rag‘batlantiruvchi usul va vositalarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ush bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 142 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt, predmet, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, ushbu bobda “ekologik madaniyat” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni va konseptual talqini, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotda ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodologik asoslari tadqiq etilgan.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolarga ekologik barqaror hayot sharoitini yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Qolaversa, mamlakatimizdagi og‘ir ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish, barqarorlashtirish vazifalari yoshlarimiz ekologik qarashlari, ongi va madaniyatida, tafakkurida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Chunki umumbashariy nuqtai nazardan fan, texnika, texnologiyalar gurkirab rivojlangan bir davrda ham insonning tabiatga ta’siri tabiatning eng vayronkor kuchlari ko‘lamidan oshib tushmoqda. Boshqacha aytganda, tabiat tragediyasida inson ham bosh rol o‘ynamoqda. Chunki ertangi hayot egalari - bugungi yoshlar qalbi va ongida ona tabiatga, tevarak-atrofga daxldorlik, mehr-shafqat, muhabbat, oqilonalik, tejamkorlik kabi sof insoniy tuyg‘ularini singdirish va tabiatni himoyalashga qaratilgan innovatsion yondoshishlarini kuchaytish ertangi hayot-mamot masalalaridandir.

Tadqiqotchi fikricha, kelajak avlodda ekologik qadriyatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga yo'naltirilgan va zamonlar sinovidan o'tgan omillarning ta'sir dinamikasi, tarixiy evolyutsion asoslarini anglash, bilish, ularning ta'sir ko'lamini ilmiy asoslash, baholash va amaliy jarayonlarga foydali jihatlarini tadbiq etish ham sog'lom kelajak – toza, beg'ubor ekologik barqarorlik garovidir. Zero, ekologiya-ekologiya uchun emas, balki insoniyat omonligi uchun degan qarashni amalga ko'chirish bu ko'p jihatdan ertangi avlodni ekologik savodxonlik ruhida nechog'lik kamol topishiga bog'liqdir.

Hozirgi zamon ekologiyasi tabiatdan samarali foydalanishning ilmiy uslublarini yaratmoqda. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning strategiyasini ishlab chiqib, uning hayotga tadbiq etmoqda⁵. Buning sababi yangi ming yillikda ham insoniyatni tashvishga solayotgan global muammolardan biri ekologik tanglik bilan bog'liq xavf-u xatarlardir. Ekologik madaniyat – ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, insonning tabiat bilan oqilona munosabatlari tizimini qamrab oladi. Ekologik madaniyat - ekologik ongning, bilimlarning predmetlashgan shaklidir⁶.

Dissertatsiyada ekologik madaniyat genezisini ya'ni kelib chiqishi, paydo bo'lishi, bunyodga kelishining tub negizlarini, avvalo qadimgi xalqlarning tabiat muhofazasiga oid etnoekologik madaniyati va uning tizimidagi tushunchalar, odatlar, qarashlar, mezonlar, me'yorlar, qoidalar hamda ekologik g'oyalar, ideallar, nazariyalar, ta'limotlar tashkil qilishi asoslab berilgan. Shu o'rinda birgina necha ming yillik tarixga ega xalqimizning etnoekologik madaniy qadriyatlar dunyosining tub ildizlariga nazar solsa agar, juda qadim zamonlardayoq boshqa qadimiy xalqlar singari tabiat va uning mulkiga hamisha oqilona munosabatda bo'lib kelganligini, uning boyliklariga boylik qo'shish xalqimizga xos o'lmas eng qadimiy an'analardan bo'lib kelganligini, shu asosda o'z hayot mezonlarini tashkil qilganligini va yosh avlodni tarbiyalaganligini kuzatamiz. Ota-bobolarimiz uzoq ming yilliklar davomida tirikchilik va hayot manbalari bo'lgan tabiatni va uning boyliklarini ezozlagan hamda ularga nisbatan hamisha hurmatda bo'lib kelishgan. Azal-azaldan ham ona yer, suv, havo, olov kabi olam asosini tashkil etuvchi unsurlarni muqaddas sanagan, qadrlangan. Kelib chiqadiki, ekologik madaniyat genezisi va ijtimoiy-falsafiy mazmuni tub ildizlarini anglashimizda, baholashimizda va tegish xulosa va yo'riqlarni o'zimizga topishimizda bu katta maktab va darsxona vazifasini o'tashi mumkin. Zardo'shtiylik dinning muqaddas kitobi "Avesto"da tabiat unsurlariga putur etkazmaslik, suv, tuproq, olov, havo, quyoshni e'zozlash va insonki tabiat boyliklariga boylik qo'shishi qarz va farz ekanligi keltirilgan. "“Avesto”da” "Cho'lda yuz yil toat ibodat qilgandan ko'ra, unga bir buta ekan afzaldir"⁷ deyilgan. Shuningdek, ma'naviy madaniyatimizning tub o'zagini tashkil qilgan Islomiy qadriyatlarda ham tabiat boyliklariga nisbatan oqilona bo'lish zarurligi, ularni barcha inson uchun ekanligi va ularni saqlashga inson mas'ulligi keltirib o'tilgan.

⁵ Нигматов А.Н. Экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш. — Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, 2007. — Б. 18–22.

⁶ Sobirov O'. Ekologik ong va ekologik madaniyat // Ekologiya xabarnomasi. -Toshkent, 2007. -№1 - B. 12.

⁷ Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. - Тошкент: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 2001. - Б.25.

Dissertant fikricha, “ekologik madaniyat” inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy aloqani chuqur idrok etish hamda bu munosabatni ma’naviy, axloqiy va falsafiy tamoyillar asosida uyg‘un tarzda yo‘lga qo‘yishni ifodalaydi. Mazkur tushunchaning shakllanishi inson tafakkuri hamda ijtimoiy ongning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelib, tabiatga sig‘inishga asoslangan qarashlardan tortib, zamonaviy barqaror rivojlanish konsepsiyalarigacha bo‘lgan tarixiy bosqichlarni qamrab oladi. Ekologik madaniyat mohiyatan tabiatni asrash yoki ekologik muammolarga qarshi kurashish bilangina cheklanmay, balki insonning o‘z mavjudligini anglash, hayotga nisbatan mas’uliyatli va munosabatni qaror toptirishga da’vat etadi. U insonni borliqning ajralmas qismi sifatida qabul qiladi va tabiat bilan uyg‘un yashash g‘oyasini ma’naviy qadriyat darajasiga ko‘taradi.

Zamonaviy taraqqiyot jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish inson va tabiat o‘rtasidagi barqaror muvozanatni saqlashning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. Bu jarayonda ijtimoiy va falsafiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni tiklash, ekologik mas’uliyatni oshirish hamda barqaror fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong esa nafaqat tabiatni muhofaza qilishni, balki insonning o‘z hayotiy mas’uliyatini chuqur anglashini ham ta’minlaydi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, yoshlar orasida ekologik madaniyati jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida qaralib, uni rivojlantirishda ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan diniy va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda ekologik madaniyatni rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar va ilg‘or texnologiyalarning o‘rni beqiyos, ular tabiatga bo‘lgan munosabatni oqilona boshqarish, resurslardan samarali foydalanish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omildir. Yangi ekologik tafakkur insonning tabiat bilan uyg‘un yashashini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bunda raqamli texnologiyalar, ekologik ta’lim platformalari va innovatsion yondashuvlar ekologik ongni kundalik hayotga chuqur singdirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yoshlar ekologik madaniyatining tarkibiy-funksional xususiyatlari va uni shakllantirish omillari”** deb nomlanadi va unda milliy qadriyatlar va ekoturizmning yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni, uzluksiz ta’lim tizimida yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish mexanizmlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi funksional roli tadqiq qilingan.

Insonning ong va shuuri yorishib, tevarak-atrof va tabiat haqidagi bilimlar, tajribalari ortib borgani sayin urf-odat, an’analarni miqdori va sifati ortib borgan. Albatta, ekotipdagi urf-odat, an’analar ekologik tarbiya usullaridan biri bo‘lib, yosh avlodni ekologik dunyoqarashini shakllantirishda iqtisodiy kamharajat, samaradorligi yuqoriligi bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Urf-odatlarimiz tizimida olovga bo‘lgan hurmat va e’tibor odatlarining ba’zi bir ko‘rinishlari O‘rta Osiyo xalqlari, aholisi turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Ota-bobolar odati va tasavvuricha, olovsiz o‘choq - misoli egasiz, kimsasiz uydur. Uchoqda yonayotgan olovni bulg‘amaslik uchun iflos narsalarni, hatto iflos o‘tinni yoqish ham taqiqlangan. Iflos o‘tin yoqishdan oldin quyoshda quritilgan yoki

suv bilan yuvib tozalangan. Olov yongan uchoqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlari tashlash, har xil axlat yoqish yoki o'choqdan chiqqan kulni axlatxonalariga tashlash, harom chiqindilarni uchoq olovda ko'ydirish gunoh hisoblangan⁸.

Tadqiqotda O'zbekistonning qator lalmikor (faqat yomg'ir suvlari bilan sug'oriladigan) yerlarida "Suv xotin", "Suet xotin" marosimlari tahlil etilib, bu marosim bahor va yoz oylari yomg'ir yog'may, ekinzorlar qovjirab, qurg'oqchilik boshlanganda, "yomg'ir chaqirish" maqsadida tashkil qilinganligi keltirilgan⁹. Respublikamiz aholisi orasida bahorda tabiatning uyg'onishi, tog' va qir-adirlarda turli gullarning ochilishi munosabati bilan turli sayllar o'tkazilishi mavjud adabiyotlarda ma'lum darajada yoritilgan¹⁰. Jumladan, Xorazm va Buxoroda "Qizil gul sayli", Farg'ona vodiysi, Ko'qon va Toshkent atroflarida "Lola sayli", ba'zi tog'li tumanlarda, jumladan, Chustda "Sunbula sayli", yana boshqa joylarda "Boychechak" kabi bayramlar uyushtirilgan¹¹.

Tadqiqotchi fikricha, yosh avlodda ekologik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirib borishda tabiat bayramlari, shunga monand urf-odatlar, an'analar o'zini yaxshi samarasini berib kelgan. Xususan tabiat va tabiat borlig'ini ulug'lashga, ezoqlashga qaratilgan bayramlari, u bilan bog'liq turli marosimlar insoniyat madaniyatining boshlang'ich davrlardayoq paydo bo'lishi barobarida jamiyat kishilarini va yosh avlodni ekologik tarbiyasida ham muhim rol o'ynagan. Tabiat quchog'iga uyushtirilgan sayyohat ko'pincha *ekoturizm* deb tushuniladi. Ekoturizmning tabiat turizmining asosiy qismi hisoblanadi. Ekoturizm bu tabiat turizmining turlaridan biri bo'lib, tabiat turlarining boshqa bo'laklarini ham o'zida namoyon etishi mumkin. Ekoturizm - tabiat turizmi bo'lib, tabiiy muhitni hosil qilish va tushunishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotda tabiat turizmi tushunchasining falsafiy mohiyatini tahlil qilinar ekan, ushbu ta'rif o'rinli deb hisoblangan: *Tabiat turizmi – turizmning alohida yo'nalishi bo'lib, u jonli tabiat muhitiga sayohat uyushtirish, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish va dam olishni ta'minlashga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu turizm shakli nafaqat rekreatsion ehtiyojlarni qondiradi, balki tabiatni saqlash va ekologik ongni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.*

Yoshlar ekologik ko'nikmalarini shakllantirishda milliy urf-odatlar va an'analar, shuningdek ekoturizm va tabiat sayohatlari muhim ahamiyatga ega. Xalqning tarixiy ma'naviy merosi hamda tabiatga hurmat va mehri ifodalovchi qadriyatlar ekologik tarbiyaning asosiy tayanchini tashkil etadi. Milliy an'analar yosh avlodda tabiatga hurmat va uni asrash mas'uliyatini shakllantirsa, ekoturizm esa ularning ekologik dunyoqarashini kengaytirib, tabiat bilan bevosita aloqaga kirishishiga imkon yaratadi hamda mas'uliyat tuyg'usini kuchaytiruvchi samarali

⁸ Аширов А. "Авесто"дан мерос маросимлар. - Тошкент: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти", 2001. - Б.15-16.

⁹ Аширов А. "Авесто"дан мерос маросимлар. - Тошкент: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти", 2001. - Б. 18.

¹⁰ Qarang: Пещерева Е.М. Праздник тюльпана (лола) в сел. Исфара Кокандского уезда. Сбр. В. В. Бартольд. Т., 1927. С. 374-380; Снесаров Г.П. Реликты... С. 205-206; Хамраев А. Х. Праздник красной розы. Изб. АН УзССР. 1958, № 5. С. 21-26.

¹¹ Қарбоев У. Ўзбекистан байрамлари. -Т.: 1991. -Б.29-31

pedagogik vosita vazifasini bajaradi. Milliy qadriyatlarni zamonaviy turizm bilan uygʻunlashtirish yoshlarning ekologik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishga va rivojlantirishga yoʻnaltirilgan maʼnaviy-madaniy mezonlari tizimida badiiy adabiyot azal-azaldan ham yosh avlodni tarbiyasida, tabiatga mehr-muhabbat tuygʻularini qadri-qaror toptirishda oʻta dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Adabiyot oʻz ichiga yozma va ogʻzaki adabiyotni qamrab olishi barobarida xalqimizning ekologik voqelikdagi koʻp ming yillik tajribalarini avlodan-avlodga etishdek muhim funktsiyani bajarish orqali yosh avlodni ekologik ruhda tarbiyalab kelganligini kuzatamiz. Yoshlarda ekologik madaniy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda adabiyot kabi sanʼat sohalarini ham oʻrni beqiyos. Yoshlar qalbi va ongiga tabiat muhofazasiga oid sogʻlom qoidalarni singdirishda adabiyot, sanʼat, muzey, OAV vositalari rolini bugungi kun talablari asosida qayta ilmiy oʻrganish, faolligini talab darajasida oshirish dardkor.

Dissertatsiyada yoshlarda ekologik madaniy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda taʼlim-tarbiya masalalari borasida fikr yuritilgan. Yoshlarga ekologik tarbiyani barvaqt shakllantirib borilishi lozim. Shu bois, taʼlim dargohlarida xususan “oʻrta maktab doirasidagi ekologik taʼlim-tarbiya jarayonida shunga erishish kerakki tabiatga qilingan har bir shafqatsizlik yoki loqaydlik kim tomonidan qilinayotganidan qanday miqyosda boʻlishidan qatʼi nazar munosib baholanib, qattiq qoralanishiga erishish lozim. Bu inson yashashi uchun shart boʻlgan moddiy-tabiiy muhitni saqlab qolish uchungina emas, shu bilan birga kelajak avlod maʼnaviy qadriyatlarining kamoloti uchun ham zarurdir”¹². Yosh avlodga ekologik taʼlim-tarbiya berishda faqat ilmiy-nazariy fikrlar, qarashlar bilan cheklanmasdan, balki real amaliy hayotiy jarayonlarga eʼtibor paralleli va muvofiqligini taʼminlash muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarda ekologik madaniy kamolotida siyosiy partiyalarni atrof-muhit tabiiyligini saqlash, himoyalash borasidagi harakatlarini ahamiyati katta. Barcha partiyalar faoliyat dasturida “Yashil Oʻzbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqishda sogʻlom avlod - ekologik sogʻlom tafakkur masalalariga jiddiy eʼtibor, bu mamlakatimizning nafaqat ekologiya va atrof-muhit borasidagi siyosati takomillashuviga, balki uning butun dunyoda obroʻ va nufuzi oshishiga xizmat qiladi.

Yoshlar ekologik madaniy kamolotida nodavlat-notijorat tashkilotlari ham muhim oʻrin tutadi. Oʻzbekiston Ekologik partiyasi respublikaning ekologik nodavlat notijorat tashkilotlari bilan faol hamkorlik aloqalarni olib bordi. Ekologik aksiya va tadbirlarni oʻtkazishda “EKOSAN” ekologiya va “Ekomaktab” ekologik-resurs markazi kabi NNTlari bilan doimiy hamkorlik amalga oshirildi¹³. Fuqarolik jamiyati institutlari yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ijtimoiy-tarbiyaviy omil boʻlib xizmat qiladi hamda ekologik ongni yuksaltirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur institutlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni ekologik aksiyalar, volontyorlik harakatlari va turli amaliy

¹² Мамашокиров С. Экологик таълим-тарбиянинг методологик масалалари. –Т.: “Ўзбекистон халқ академияси Нур”, 1993. –Б.8.

¹³ Siyosiy partiyalar faoliyati toʻgʻrisida maʼlumotnoma. - Toshkent, 2021. - B. 28.

loyihalarda faol ishtirok etishga keng jalb etadi, bu esa ularning ekologik bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan milliy urf-odatlar va an'analarda mujassam etnoekologik tajriba bugungi avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Ushbu tajriba orqali tabiatga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Adabiyot, san'at va ommaviy axborot vositalari yoshlar ongida tabiatga nisbatan mehr-oqibat, hurmat va mas'uliyat hissini kuchaytirib, ekologik qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim va tarbiya tizimi ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosiy institutlar hamda ilg'or xorijiy tajribalar yoshlar ongida ekologik mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu institutlar ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda yoshlarni amaliy ekologik faoliyatga keng jalb etish orqali ekologik ong va mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Yoshlarda ekologik madaniyatni yuksaltirishning istiqbolli yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar, xorijiy amaliyot va milliy tajriba, yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi va istiqbollari, bu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil etilgan.

Yangi O'zbekistonning ertangi ekologik barqaror taraqqiyoti – navqiron yosh avlodning nechog'lik ekologik madaniyatga sadoqat ruhida tarbiya topishiga har jihatdan ham bog'liqdir. Chunki ekologik ong va tafakkur yuksak bo'lmagan joyda taraqqiyotga va takomilga erishib bo'lmaydi. Shu bois, bu boradagi zamonaviy innovatsion g'oya, qarashlar, usul va vositalarga tayanish, mavjudlarini mukammalligi va hayotiyeligini oshirish dolzarb ahamiyatga egadir. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali – zamonaviy usullari; oila, mahalla, ekologik targ'ibot-tashviqot, ekologik ta'lim-tarbiya, mahalliy va xorijiy tajribalarning zamonaviy usullari hamda vositalari orqali amalga oshiriladi.

Dissertant fikricha, ekologik muammolarni vujudga keltiruvchi eng yirik kuch antropogen ta'siri ekanligini anglasak uning echimi ham avvalo inson ekologik ongi va tafakkuriga bog'liq ekanligi oydinlashadi. Shu bois, o'sib kelayotgan va ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarni sog'lom ekologik ruhda tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Ekologik tarbiyani - ekologik ta'limsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shu boisdan, bu boradagi ta'lim va tarbiya uzviyligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yoshlar qalbi va ongida ekologik madaniyatni shakllantirish, rivojlantirish borasida avvallari hech qachon qilinmagan ezgu hayotbaxsh ishlar qilinmoqda¹⁴. Xususan, milliy tarbiya tizimi doirasida yoshlar tarbiyasiga jumladan ekologik madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish masalalariga, bu boradagi savodxonligini oshirishga, burch, mas'uliyatni, daxldorligini his-tuyg'ularini kuchaytirishga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

¹⁴ Мамашокиров С. Экологик таълим-тарбиянинг методологик масалалари. -Т.: “Нур”, 1993. -Б.8.

Yoshlar ekologik ongi va madaniyati, ekologik huquqiy targ'ibot, ekologik ta'lim va tarbiya vositalari orqali bugungi ijtimoiy voqelikning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bugungi avlod qalbi va ongida tabiatga nisbatan ongli, ijtimoiy mas'uliyatli va axloqiy yondashuvni tarkib toptirishni taqozo qilmoqda¹⁵. Bu boradagi tamoyillar tizimini aniqlashtirish, yoshlarning ekologik ongini o'stirishga xizmat qiladigan asosiy konseptual yondashuv sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonni yoshlarda ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi vositalar tizimi bilan uyg'un holda qarash zarurati mavjud. Umumbashariy tamoyillar ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda bosh mezon bo'lib, ular orqali global ekologik muammolar mohiyatini tushunish imkoniyati yuzaga keladi. Modomiki insoniyat yagona biosferada hayot kechirayotgan bo'lsa, tabiatga nisbatan mas'uliyat ham umumiydir.

